



## FRONT GAZETALARI SAHIFALARIDA O'ZBEKISTON SANOATCHILARINING FIDOKORONA MEHNATINING YORITILISHI

Mannopov Xumoyun Murodjon o'g'li

Andijon davlat uniuersiteti

“O'zbekiston tarixi” kafedrası magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7575660>

### ARTICLE INFO

Received: 16<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 26<sup>th</sup> January 2023

Online: 27<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

*Ikkinchi jahon urushi, og'ir sanoat, yengil sanoat, fashizm, militarizm, harbiy korxonalar, zavod, fabrika, metallurgiya, front gazetolari.*

### ABSTRACT

*Maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston sanoati ishchi va xizmatchilarining fashizm va yapon militarizmi ustidan qozonilgan buyuk g'alabaga qo'shgan xissasini urush yillarida frontlarda nashr etilgan gazetalar sahifalaridagi maqola va habarlar orqali yoritilgan.*

Ikkinchi jahon urushi davrida fashistlar Germaniyasi hamda militaristik Yaponiya ustidan qozonilgan tarixiy g'alabada O'zbekiston sanoati va ishchilarining munosib hissi bor. O'zbekiston sanoatida faoliyat yuritgan xodimlar hamda ishchilar urush yillarida yuksak onglilik va uyushqoqlik namunalarini ko'rsatib g'alaba uchun barcha zarur bo'lgan ishlarni qildi. Respublika iqtisodiyotini harbiy izga solish, armiyani dushman ustidan g'alaba qozonishini ta'minlashga qodir bo'lgan qudratli harbiy xo'jalikni barpo etish ana shu vazifalardan biri edi.

Vaziyat nihoyatda og'ir edi. Gap shundaki, urushga qadar sovet davlatida ishlab chiqarilgan temirning 68 foizi, po'latning 58 foizi, alyuminiyning 60 foizi g'arbiy mintaqalardan olinardi. Mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan og'ir sanoat korxonalarining ham katta qismi g'arbiy hududlarda joylashgan edi. Endilikda bu hududlarni qisqa vaqt ichida fashistlar egallab olgandi. Vazifa tez fursatlarda ana shu katta yo'qotishning o'rnini qoplashdan va dushman ustidan g'alabani ta'minlaydigan sanoat ishlab chiqarishini yo'lga qo'yishdan iborat edi. Bu borada O'zbekiston SSRning o'rni va salmog'i albatta, katta edi. Urushning dastlabki yilidayoq O'rta Osiyo respublikalariga Ittifoqning markaziy rayonlaridan 308 ta zavod va korxonalar olib kelindi. Jumladan, O'zbekistonga 104 ta zavod ko'chirib keltirildi. Keltirilgan korxonalarini nihoyatda qisqa muddatlarda ishga tushirishga erishildi. 1941-yil oxirigacha shunday korxonalardan 50 tasi ishga tushirildi, qolgan qismi 1942 yil boshlaridan front ehtiyoji uchun mahsulot ishlab chiqara boshladi[1.20].

Moskva oblasti Ximki shahridan ko'chirib keltirilgan zavod asosida 1941-yil oktyabrda Toshkent aviatsiya zavodi barpo etildi. Bu zavod front uchun qiruvchi samolyotlar ishlab chiqargan.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining 1941 yil 25 avgustda qabul qilgan maxsus qarori asosida sanoat korxonalarini ishiga rahbarlik qilish uchun respublika hukumat



komissiyasi tuzildi. Bu komissiya respublika sanoatini harbiy izga solish masalalari bilan shug'ullandi. Natijada urushgacha tinch maqsadlar uchun ishlayotgan sanoat korxonalarini qisqa muddat ichida harbiy texnika, qurol-yarog' ishlab chiqaradigan korxonalariga aylantirildi. O'zbekistonda 1941 yilning oxirlariga kelib 300 ta zavod va fabrika Qizil Armiya uchun qurol-yarog' va o'q-dori ishlab chiqara boshladi[2.447]. Birinchi navbatda turgan masala mudofaa sanoati korxonalarini uchun zarur bo'lgan yoqilg'i, elektr quvvati va metall bilan ta'minlashdan iborat bo'ldi.

O'zbekiston mehnatkashlari urush yillarida ximiya sanoati, qurilish materiallari sanoati, to'qimachilik, poyafzal, yengil va oziq-ovqat sanoati, mahalliy va kooperativ sanoati va transport tarmoqlarini rivojlantirish sohasida ham bir qator tadbirlarni amalga oshirdilar. O'zbekiston SSR sanoati mahsulotining umumiy hajmi 1945 yilda 1940 yilga nisbatan 7 baravar, shu jumladan, og'ir sanoat ishlab chiqarishi 4 baravar, mashinasozlik sanoati 13,4 baravar oshdi[2.447].

Urush yillarida O'zbekiston xaritasida yangi sanoat markazlari: Chirchiq, Ohangaron, Bekobod, Yangiyo'l va boshqa sanoat shaharlari vujudga keldi. Toshkent shahri yirik sanoat markazlaridan biriga aylandi. Xullas, O'zbekiston sanoati urush yillarida frontga 2090 dona samolyot, 17342 dona aviamotor, 2.318.000 aviabomba, millionlab minalar, snaryadlar, granatalar va boshqa qurol-aslaha hamda o'q dorilar yetkazib berdi. Yengil sanoat korxonalarini umumiy qiymati 443,3 million so'mlik mahsulotlarni front ehtiyojlari uchun ishlab chiqardi[3.358]. Bu fashistlar Germaniyasini tor-mor keltirishda O'zbekiston sanoatchilarining qo'shgan katta va munosib hissasidir. Bu o'zbek sanoatchilarining fidokorona mehnatlari o'z vaqtida ikkinchi jahon urushi jangohlarida o'sha mashum urush yillarida chop etilgan gazetalar sahifalarida ham yoritib borilgan.

Urush yillarida o'zbek tilida 14 ta front va 2 ta diviziya gazetasi nashr etilgan. "Front haqiqati", "Qizil askar haqiqati", "Qizil armiya", "Vatan sharafi uchun", "Suvorovchi", "Vatan uchun", "G'alaba sari olg'a", "Bong", "Dushmanga qarshi olg'a" kabi gazetalaridir. Bu front gazetalarini va ularning sahifalaridagi materiallar asosida professor Rustambek Shamsutdinovning "Akademnashr" nashryotida 2017, 2020 yillarda besh jildlik "Ikkinchi jahon urushi va front gazetalarini" nomli kitoblari nashr etilgan. Biz shu kitob sahifalaridagi front gazetalaridagi ayrim habar hamda ma'lumotlarga tayangan holda O'zbekiston sanoatining urushdagi g'alabga qo'shgan munosib xissasini ayrim jihatlari xususida to'htalib o'tmoqchimiz.

1944 yil 5 mart kuni O'zbekiston tarixida ilk bor respublikadagi birinchi metallurgiya zavodi ishga tushdi va urush yillarida faoliyatdagi bo'lgan korxonalar qatoriga qo'shildi. Darhaqiqat urush yillarida respublikamizning rangli metallurgiya sanoati 6 barobarga o'sdi.

Zavodning foydalanishga topshirilishi haqidagi xush habar hatto olis urush ketayotgan yerlargacha tarqadi. Ikkinchi boltiqbo'yi frontida o'zbek tilida chop etilgan "Suvorovchi" gazetasining 1944 yil 19 mart, 18 (101)-sonida "O'zbek xalqining ulug' g'alabasi" sarlavxasi ostida e'lon qilingan habarda aynan Bekobod metallurgiya zavodining ishga tushirilishi haqida so'z boradi. Unda jangchilarga qarata qilingan murojot harakteridagi shunday habar beriladi: O'zbek xalqi tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan tantanali kunlarni o'tkazmoqda. O'rta Osiyoda birinchi bo'lgan O'zbekiston metallurgiya zavodi qurilib ishga tushdi. Partiya va hukumat



o'zbek xalqining metallurgiya zavodi qurish to'g'risidagi so'rovini qabul qildilar. O'zbekiston tog' boylıklarining butun kuchi dushman boshiga o'q bo'lib yog'iladigan bo'ldi.

Mirzacho'l dashtida ijodiy mehnat qizidi. Xalq qurilishi ustalari, Katta Farg'ona kanali quruvchilari, minglarcha kishilar cho'l-biyobonga chiqib keldilar. Katta tosh yo'llar, temir yo'l izlari, mexanika masterskoylari, yotoq joylar qurilishi boshlandi.

Bu olamshumul ulug' qurilishda butun xalq ishtirok etdi. Ko'p vaqt o'tmasdani qadimgi Sirdaryo bo'yida marten pechining uzun trubalari osmonga ko'tarildi. Ajoyib zavod, chiroyli shahar vujudga keldi...

O'zbek jangchilari!

Jonajon O'zbekistonimizda metallurgiya zavodi qurilgani haqidagi xabar sizlarni quvontirsin. Sizning ota-ona va opa-singillaringiz hamda xotinlaringiz vaqt bilan xisoblashmasdan, kuchlarini ayamadan dushman ustidan g'alabani tezlatish uchun tinmay ishlamoqdalar.

Biz ham harbiy bilim va malakamizni tinmay oshiraylik, dushmanli shonli gvardiyachilarimiz singariurushga o'rganaylik. Xalqimiz ishonib topshirgan ajoyib texnikamizdan puxta foydalanaylik...

Xalqimizning fidokorona mehnatiga yangi jangovor g'alabalar bilan javob beraylik. Dushmanga zarbamizni tobora oshirayli!, deya yakunlanadi murojotnoma[4.165].

Gazetaning xuddi shu sonida "O'zbek xalqining iftixori - metallurgiya zavodi ishga tushdi" nomli maqoladan quyidagi ma'lumotlar o'rin olgan: O'zbek xalqi quvonchli kunlarni o'tkazmoqda. O'zbekiston metallurgiya zavodining marten pechida po'lat eritila boshlandi. O'zbekistonda qora metallurgiyani rivojlantirish uchun asos qurildi. Butun O'zbekistonda shu munosabat bilan tantanali namoyishlar bo'lib o'tdi. Bu faktga O'rta Osiyo sanoatini rivojlantirishda qo'yilgan yangi qadam... deb qaralmoqda.

Po'lat eritish boshlangankuni zavodda ko'p kishi qatnashgan katta miting bo'ldi. O'zbekiston partiya va hukumat rahbarlari, kolxoz, fabrika-zavod vakillari hamda sovet intelligensiyasi va harbiy qismlarning namoyandalari keldilar. O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining raisi o'rtoq Abdurahmonov nutq so'zlab, O'zbekistonda metallurgiya zavodining qurilishi juda katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, bu ishda yaqindan ishtirok etgan Ural va Donbass metallurgiyachilariga o'zbek xalqi nomidan tashakkur izhor qildi.

Metallurgiya zavodini qabul qilish va ishga solish uchun kelgan xukumat komissiyasining raisi o'rtoq Smolyarenko zavodni qurgan va montaj qilgan kishilarning ishiga yuksak baho berdi...[4.167-168] . Gazetaning ushbu sonida yana Bekaboddagi zavodning ishga tushirilishi tarixiga bag'ishlangan "O'zbekistonda po'lat eritilmoqda", "Mening quvonchim", "Urush vaqtidagi ulug' qurilish"[4.158-172] sarlavxalari ostida qator maqolalar bosilib, askarlarga tarqatildi. Bu bilan askarlarni ruxiyati yanada ko'tarishga harakat qilingan.

O'zbekiston mehnatkashlari urush yillarida ximiya sanoati, qurilish materiallari sanoati, to'qimachilik, poyafzal, yengil va oziq-ovqat sanoati, mahalliy va kooperativ sanoati va transport tarmoqlarini rivojlantirish sohasida ham bir qator tadbirlarni amalga oshirdilar.

O'zbekiston SSR sanoati mahsulotining umumiy hajmi 1945 yilda 1940 yilga nisbatan 7 baravar, shu jumladan, og'ir sanoat ishlab chiqarishi 4 baravar, mashinasozlik sanoati 13,4 baravar oshdi. Ikkinchi jahon urush yillarida O'zbekiston xaritasida yangi sanoat markazlari:



Chirchiq, Ohangaron, Bekobod, Yangiyo'l va boshqa sanoat shaharlari vujudga keldi. Toshkent shahri yirik sanoat markazlaridan biriga aylandi.

1941 yil kuzida Rossiya va Ukrainadan qand zavodlari ko'chirib keltirildi. Ularning zamirida O'zbekistonda Krasnogvardeysk, Yangi yo'l, Qo'qon, Zirabo'loq qand zavodlari qurib bitkazildi. 1942 yil dekabr oyining boshida Yangi yo'l qand zavodi o'zining dastlabki maxsulotini bera boshladi. Zavodda Toshkent oblasti kolxozlarida yetishtirilgan qand lavlagi xomashyosidan qandning birinchi sentneri tayyorlandi[5.257].

Uzoq Sharq frontida o'zbek tilida chiqqan "Bong" nomli gazetaning 1944 yil 18 yanvar, №5 (85)-sonida "O'zbekistonda" rubrikasi ostida "O'tgan mavsumdagidan uch hissa ko'p qand pishirildi" nomli maqolada O'zbekistonning qand zavodlari million sentner qand lavlagi ishlatgan edilar. 1942-1943 yil mavsumidagidan uch xissa ko'p qand olindi. Lavlagidan qand chiqish protsenti o'tgan yildagidan ikki marta ko'paydi. Ilg'or Qo'qon zavodida bu yil qand chiqishining o'rtacha miqdori qariyb 10 foizni tashkil qiladi.

Tayyorlov punktlariga qand lavlagi topshirish davom etmoqda. Zavodlar yana bir yarim oyga yaqin ishlayajaklar. Ular bu davrda bir necha yuz ming pud qand pishirib beradilar[6.374], - dagan ma'lumotlar bosilgan edi.

1944 yil iyun oyida Qoraqalpog'istonning Qo'ng'iro't rayonidagi Qoraqalpog'istondagi birinchi yog' zavodi qurilib ishga tushirildi. Qoraqalpog'istondagi yog' maxsulotlari ishlab chiqarishdagi to'ng'ich ushbu korxonada iyun oyidan boshlab o'z mahsulotini berishni boshladi. Qoraqalpog'istonda 1944 yil oxirigacha yana ikkita yog' zavodi qurilishi mo'ljallangan. Bo'lib, bu zavodlarning ish boshlashi bilan Qoraqalpog'istondan chetga chiqarib, yog' qilingan chigitlar endi respublikaning o'zida ishlanadi[7.306].

Xullas ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston sanoati juda tez taraqqiy etdi. Respublikada ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalaridan tashqari yana 280 ta yangi sanoat korxonalarini ishga tushirildi. Toshkent sobiq Ittifoqning eng yirik sanoat markazlaridan biriga aylandi. Chirchiq, Angren, Bekobod, Yangiyo'l va boshqa yosh sanoat shaharlar paydo bo'ldi. Bu Respublika urbanizatsiya jarayonlarini yanada rivoj topishiga xizmat qildi. O'zbekiston ko'mir sanoati mahsulot ishlab chiqarishni 30 baravar, ximiya sanoati 7,5 baravardan ziyodroq, neft sanoati uch baravardan ziyodroq ko'paytirdi. Urushning qiyin yillarida respublikaning ishchilar sinfi o'zining fidokorona vatanparvarlik mehnati bilan fashist bosqinchilari ustidan g'alaba qozonishga bebaho hissa qo'shdi. Huddi anashu jarayonlar, xalqimizning fidokorona mehnati front gazetalarida sahifalarida muntazam yoritib borildi.

## References:

1. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб 1939-1991 йиллар. – Тошкент: O'zbekiston, 2019.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000.
3. Ўзбекистон ССР тарихи. Қадимги даврдан ҳозирги кунларгача. –Тошкент: Фан, 1974.
4. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Биринчи китоб. – Тошкент: Akademnashr, 2017.



5. “Ватан учун”, 1942 йил 6 декабрь, №11.; Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Тўртинчи китоб. –Тошкент: Akademnashr, 2020.
6. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Учинчи китоб. – Тошкент: Akademnashr, 2017.
7. “Суворовчи”, 1944 йил 6 июнь №34 (117).; Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Тўртинчи китоб. –Тошкент: Akademnashr, 2020.